

ASKIYA SAN'ATI XUSUSIYATLARI VA O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ASKIYA JANRINING O'RGANILISHI

Muhammadjonova Mohinur

Farg'ona Davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti

“Musiqqa ta’limi” yo’nalishi, 2-bosqich talabasi

sanjarbekovna2005@gmail.com

Annotatsiya:

The Russian language is used as a means of interethnic communication in the near abroad. Currently, Russian is one of the languages of European and World importance. Along with English, French, Spanish, Chinese, and Arabic, it is recognized as the official and working language of the United Nations. Modern Russian literary language is studied by more than 250 million people in about 100 countries of the world.

Kalit so'zlar: Askiya, folklor, qiziqchi, azkiyo, zakiy, payrov, askiyabozlik, teatr, yalla, mif, doston

Ma'lumki, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti xilma-xil adabiy tur va janlardan tashkil topgan hodisa sifatida kishilik jamiyati tarixida ko'p vazifali ijtimoiy-estetik mohiyatga ega so'z san'ati hisoblanadi. U qanday zamonda, qanday davrda bo'lmasin o'z ijodkoriga ega bo'lgan xalqning orzu-armonlarini, istak-xohishlarini ifodalab kelgan va hozirgi kunda ham ifodalab kelmoqda. Qolaversa, xalq og'zaki ijodining bosh vazifasi xalqning o'z-o'zginasi emas, balki bolalarning ham ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajarimoqda.

San'atimizning eng qadimiy manbalari folkshunoslik xalq og'zaki ijodi, ya'ni folklor qo'shiqlar, allalar, yallalar, mehnat va marosim qo'shiqlari, maqollar, matallar, ertak, afsona, mif, asotir, rivoyatlar, doston, o'lanlar asosida tarkib topgan, bunga misol tariqasida qadimgi davr folklori, marosim folklori, bolalar folklori, xalq lirikasi, folklor va yozma adabiyot, o'zbek xalqining epik janrlari tizimi, xalq dostonchiligi, dostonchilik maktablari, ularni epik an'analari, turkiy xalqlar folklorini o'zaro aloqalari, og'zaki teatr va xalq tomosha san'ati, og'zaki, an'anaviy xalq qo'shiqlari, musiqalari, barcha vo'ha va hududlarga xos raqs san'atlarini alohida tilga olish mumkin.

Xalq og'zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri-askiya janridir. Askiya janri haqida fikr yuritilar ekan, undan oldin bu turning xususiyatlariga to'xtalib o'tish joizdir. Askiya yer yuzidagi birorta xalq og'zaki ijodida uchramaydigan, so'zdan so'z hosil qilish, so'zning rang-barangligidan to'liq foydalanish, so'z o'yiniga asoslangan janrdir. Askiyaning alohida e'tiborli jihatlaridan yana biri uning faqat o'zbek folklorigagina xos janr ekanligidir. Askiyaning boshqa xalqlarda uchramaganligini, o'zbek tilidagi so'z boyligi bilan bog'liqdir. Xususan, maqol, topishmoq, qo'shiq, ertak, doston janrlari jahon xalqlari ijodida aynan yoki biroz o'zgargan holda uchraydi, ammo olimlar shu kunga qadar askiyaning boshqa xalqlarda mavud ekanligini aniqlashmagan. Latifa janrini ko'pchilik askiyaga o'xshatishi mumkin, ammo latifa ham o'ziga xos jihatga ega bo'lgan alohida janrdir. Askiya aytish qanchalar murakkab bo'lsa, uni tushunish ham shunchalik oson ish emas. Chunki askiyachi aytgan askiyada nozik so'z o'yini qo'llaniladi. So'z o'yinini tushunish esa uni o'ylab topishdek qiyin jarayon. So'z o'yinida uni o'ylab topgan odamning fikrlash usulini qo'llash

lozim bo‘ladi. Shu boisdan ham, askiya paytida kimdir kuladi, kimdir esa gap nima haqida ketayotganligini anglay ham olmaydi. Askiya janrining bosh maqsadi, uning mohiyati so‘z o‘yini vositasida kulgi hosil qilishdir. Askiya topqirlik, hozirjavoblik, nozik did va madaniyat, so‘zamollik, teran bilim va samimiyat bilan tomoshabinni kuldirish demakdir. Ne baxtki, askiya faqat o‘zbek xalq og‘zaki ijodigagina xos.

Askiya atamasining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, so‘zning asos qismi arab tilidagi „zakiy“ so‘zidan olingan bo‘lib, sof fikrli, o‘tkir zehni, nozik tabiat bilan fikr yuritish degan ma’nolarni anglatadi. „Azkiyo“ uning ko‘plik shakli sanaladi. Bu so‘zning askiya shakliga kelguniga qadar fonetik hodisaga uchrab, „k“ jarangsiz undosh tovushining ta’sirida „z“ jaranglisi jarangsizlashib, „s“ tovushiga aylangan bo‘lishi mumkin deb qaraladi.

O‘zbek folklorshunosligida askiya janri qay tarzda vujudga kelganligini bir qancha misol ko‘rib, shundan xulosa chiqargan holda fikr yuritish mumkin. Hayoti davomida chiroyli topilgan so‘z bilan bog‘liq ibratli lavhalar tez-tez uchrab turishi tabiiy. Bunday lavhalar o‘zbek tili imkoniyatlari qanchalar cheksiz ekanini isbotlovchi vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Keyingchalik bunday lavhalar tildan tilga o‘ta boshlaydi. Aslini olganda, askiyaning vujudga kelishi, shakllanishi til boyligi namoyon bo‘lgan ana shunday lavhalarga asoslanadi. Misol uchun, kunlardan bir kun dutorchi qizlar ansambli ishtirokchisi Sanobar ismli xonanda musiqa mashqi o‘tkaziladigan xonaga birinchi bo‘lib keladi va ustoz G‘anijon Toshmatovga: „Qizlar kelishmadimi?“- deb savol beradi. Ustoz san’atkor javobida askiyaning muhim jihati aks etgan. Chunki G‘anijon aka o‘z javobida, birinchidan, mashg‘ulotga kelgan qiz yagona Sanobar ekanini ta’kidlagan bo‘lsa, ikkinchidan, shogirdining qaddi-qomati kelishganini aytib o‘tadi. Bu kichikroq dialogda xalqimiz og‘zaki ijodiga oid askiya janrining asosiy belgisi-so‘z o‘yini bo‘lib o‘tganini qayd etishimiz mumkin.

Askiyabozlar til boyligidan foydalanib, odamlarni kuldirish uchun bir necha usullardan foydalanadilar. Ulardan biri omonim so‘zlardan foydalanishdir. Bu huddi mumtoz adabiyotdagi iyhom san’atiga o‘xshab ketadi. Xattoki, omonim so‘zlar xalq og‘zaki ijodidagi she’riy parchalarda ham uchraydi. Ammo ular tajnis san’atini yuzaga keltirsa, askiyada esa ko‘proq iyhom san’atidagi so‘z o‘yini yetakchilik qiladi. Ba’zi paytlarda murakkablashib ketganligidan bu san’atni anglash birmuncha qiyin bo‘lib qoladi.

Tarixchilarning ma’lumotiga ko‘ra, qadim zamonlardan rivojlanib kelgan askiya Amir Temur davrida yanada ravnaq topgan. Sohibqiron ham yaxshigina askiyachi bo‘lgan. Boyazid esa chiroyli askiya qilgan ekan: „Dunyo bir ko‘r bilan bir cho‘loqqa qolganini qara“, deb. Navoiy mashhur askiyachi Muhammad Badaxshini „askiyaning piri“ deb atagan. XVIII-XIX asrlarda askiyachilik Farg‘ona vodiysi (ayniqsa, Qo‘qon va Marg‘ilon) va Toshkentda ancha rivojlangan. Dehqon yuzboshi Shernazarov (1860-1942) va Saidahmad askiyachi (1880-1940) kabi mashhur askiyachilar o‘tgan. Ularning an’analarini XX asrning 40-yillaridan keyin Erka qori Karimov, Mamayusuf Tillaboyev, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Rasul qori Mamadaliyev, Aka Buhor Zokirov va boshqalar davom ettirdi. 50-yillardan askiya konsert dasturlariga ham kiritildi. Lutfixonim Sarimsoqova, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Muhammadjon Mirzayev, G‘anijon Toshmatov, Soyib Xo‘jayev kabi san’atkorlar askiyani teatr sahnasiga olib chiqdi. Askiya san’atini ilmiy jihatdan o‘rgangan olim Rasul Muhammadiyev hisoblanadi. Olim askiya aytish qadim zamonlardan boshlangan deya ta’kidlaydi. XV asrda yashagan shoir Zayniddin Vosifiy o‘z xotiralarida Hirot shahrida Mirsarbarahna, Burhoniy Gung, Hasan Voiz, Said G‘iyosiddin, Sharfiy, Xalil Sahnob, Muhammad Badaxshiy kabi o‘tkir so‘z ustalari borligini aytib o‘tgan. Shu davrda hunarmandchilik rivojlanganligi sari askiyachilik ham keng ommalashgan. Bu jihatdan Farg‘ona vodiysi aholisi alohida ajralib turgan. Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mamayunus Tillaboyev, Erka qori Karimov, Amin buva, G‘anijon Toshmatov, Tursun

buva Aminov, Abdulhay Maxsum kabi mashhur soʻz ustalari askiya sanʼatini rivojlantirishda munosib hissa qoʻshganlar. Qadimdan ustoz sanʼatkor askiyachilar yaratgan va ijro etgan milliy anʼanaviy askiya payrovlari bor:

1. “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz”.
2. “Oʻxshatdim”.
3. “Afsona”.
4. “Ashula yoki qoʻshiq payrovi”.
5. “Dehqonchilik payrovi”.
6. “Bogʻbonchilik payrovi”.
7. “Gul payrovi”.
8. “Qush payrovi”.
9. “Laqablar payrovi”.
10. “Bedana payrovi”.
11. “Kino payrovi”.
12. “Kasb payrovi”.
13. “Musiqqa sozlari payrovi”.

Askiya tarafma-taraf boʻlib ijro etishga asoslangan. Tarafma-taraf boʻlib askiya aytishni boshlagan askiyabozlarni tinglovchilar ommasi kuzatib turadi va tomonlardan qay biri mantiqli ilmoqli luqmasi bilan ustun kelsa, kulgi-qahqaha bilan ularni maʼqullab, chapak chalib, olqishlab boradi. Shu xususiyati tufayli askiya tomonlar tortishuviga aylanib boradi. Askiyaning badiiy qurilishi tugallangan ikki fikrning bir-biriga qarshi qoʻyilishidan tashkil topadi. Undagi har bir fikr oʻziga xos tugunga va echimga ega boʻladi. Qarshi qoʻyilayotgan fikrlar oʻzaro bir-birini inkor etishi yoki tasdiqlashi, yoxud kuchaytirishi kerak. Har bir askiya asosida satira va yumor teng yotadi. Chunki askiyada, albatta, ikki xil kulgi tugʻiladi. Yaʼni, tomonlardan biri yaramas illatlarni ochish uchun ramziy yoki koʻchma maʼnodagi soʻz va iboralarni qoʻllaganda, zaharxanda (satirik kulgi) koʻtarilsa, shu paytda uning fikri qaratilgan ikkinchi tomondagi askiyachilardan biri noqulay holatga tushib qoladi. Bu kulgi-yengil, begʻubor yumoristik kulgini tashkil etadi. Bunday kulgini hosil qilish uchun kinoya ishlatiladi, u yoki bu soʻz, ibora kuchaytiribrogʻ, boʻrttirib qoʻllaniladi. Raqib tomon askiyachisi kulgili narsa yoki hodisalarga qiyoslanadi.

Askiyaning har xil turlari mavjud. Shulardan eng keng tarqalgan, anʼanaviylashgani payrovdur. Payrov-muayyan mavzu atrofida ijro etiladi. Masalan, mevalar nomi, kino nomlari, parranda, qushlar, fasllar, badiiy asarlar nomi payrovlarga mavzu qilib keltirilishi anʼanaga aylangan.

Payrovlarning hajmi har xil, syujeti sodda boʻladi. Payrovda biror-bir soʻz, atama chertib aytiladi va u garchi oʻz maʼnosida qoʻllanayotgandek tuyulsa-da, aslida koʻchma maʼnoni boʻrttirib ifodalab keladi. Payrovlar boshlama va tugallanma qismlardan iborat boʻladi. Uning boshlamasida, asosan, tarafkashlar belgilanadi. Haqiqiy payrov esa mavzu oydinlashgandan keuin boshlanadi. Payrovda belgilangan mavzudan uzoqlashmaslik shart. Bu payrovda bellashayotgan, tortishayotgan tarafkash askiyabozlar uchun maʼlum qoidaga aylangan. Shuning uchun askiyaboz belgilangan mavzudan uzoqlashsa, pala – partish soʻz aytsa, payrov buzilgan va engilgan hisoblanib, askiya toʻxtatib qoʻyiladi.

Payrovda yana askiyachining “raqib”iga aytgan soʻz va jumlasini koʻchma maʼno kasb etishi shart. Shuningdek, askiyachi oʻz nutqida turli badiiy tasvir vositalaridan ham unumli foydalana olmogʻi lozim. Askiya payrovlaridan askiyaboz oʻz “raqibi”ning feʼl – sajiyasiga, xulq-atvoriga, qiliqlariga, tashqi koʻrinishiga, portretiga mos laqabni topa olishi va ularni soʻz oʻyini orqali shaʼma qilib oʻtishi kerak. Bularning bari payrov askiyaning tabiatini belgilab turadi. Askiyaning ichki

turlarini “Bo‘lasizmi?”, “O‘xshatdim”, “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?”, “Safsata”, “Qofiya”, “Radif” kabi kichik, ixcham, savol-javob shakliga ega bo‘lgan namunalar tashkil etadi.

Payrovga nisbatan oldinroq shakllangan askiyaning bu turida dialog kompozision asos hisoblanadi. Ulardagi savol-javoblarining har biri kichik hajmdagi epizodlardan tashkil topadi. „O‘xshatdim“, „Bo‘lasizmi?“, „Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz“ tipidagi askiyalar bir xil xarakterda bo‘lib, ularda o‘xshatish orqali bir-birini tanqid qilish shakli namoyon bo‘ladi. Tanqidga mo‘ljallan bo‘lgan askiyaboz kulgili narsalarga – jonivorlarga, gul turlariga o‘xshatiladi. Unga qarshi tomon ham shu xilda javob qaytaradi. Ularda satira, tanqid alohida o‘rin tutadi. “Safsata” tipidagi askiyalarda tarfkashlarning piching yo‘lida aytgan hazili namoyon bo‘ladi. Askiyaning yana bir turi “Tatal”, “Rabbiya” shakllari hisoblanadi. “Tatal” va “Rabbiya” ko‘pincha she‘riy yo‘lda aytilishi bilan askiyaning boshqa turlaridan ajralib turadi. Askiyaning tatal usulida yumshoq kulgi hukmronlik qiladi. Askiyalar mavzusi va g‘oyaviy yo‘nalishi jihatidan ikkiga bo‘linadi:

1. Ijtimoiy-siyosiy ma‘nodagi askiyalar.
2. Maishiy-tarbiyaviy mazmundagi askiyalar.

O‘tmishda yaratilgan askiyalarning aksariyati ijtimoiy-siyosiy ma‘no kasb etganligi kuzatiladi. Ularda ko‘proq o‘tmishdagi og‘ir hayot, insonning insonga zulm o‘tkazishi, yuqori tabaqa vakillarining, amaldorlarning xalqqa etkazgan jabru jafosi, turli nayranglari hajv qilingan. Askiyalar hozirgi davrda ham faol yaratilmoqda. Hozirgi davr askiyalarida, asosan, istiqloq zamonasi bunyodkorligi, milliy hurlik baxsh etgan farovon hayot haqida gapiriladi. Askiya kishining ruhini ko‘taradi, uni ma‘naviy g‘alabalar sari davat etadi. Shu sababli xalq askiyani sevadi.

Askiyada badiiy ko‘chimning har xil turlarini, bundan tashqari, istiora, o‘xshatish, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarini hamda tanosib, tajnis, mubolag‘a singari ifoda vositalarini uchratish mumkin. Masalan: G‘oyib aka:

- Qanday o‘rik yeyman axir, siz bog‘ning o‘rtasida turib, olma, olma, deysiz-u! Askiyada majoziy ma‘noni kuchaytirish maqsadida omonim so‘zdan unumli foydalanilgan. Omonim so‘zlar vositasida iyhom san‘ati qo‘llangan. Askiyadagi “Olma” so‘zi bir o‘rinda meva nomini, ikkinchi o‘rinda esa buyruq fe‘lini bildirib kelmoqda va uning yordamida, birinchidan, kulgi obyektini aniqlanayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, holat komizmi vujudga keltirilgan.

Ba‘zan askiyalarda ayrim so‘zlarning o‘rni ataylab almashtiriladi yoki buzib aytiladi. Bunday holatda u yoki bu belgiga shama‘ qilinadi. Urg‘u tushgan so‘z yoki jumla esa kulgi qo‘zg‘aydi. Masalan: “Mamayunus aka uxlab yotgan Erka qorini asta turtib:

-Turing, Qori aka! Kurortga (kurort) keldingiz!- dedi. Erka qori yostiqdanda boshini ko‘tarar ekan, shoshib-pishib, paypaslanib, derazadan tashqariga qaragan bo‘ldi-da, darhol yuzini Mamayunus aka tomonga burib:

-Hovliqmay qoling, Mamayunus! Sho‘rtepa-ku,- dedi.”

Askiyada “kurort” so‘zi ataylab buzib aytilgan. “Sho‘rtepa” so‘zi esa gap boshlagan askiyachining kal ekanligiga ishora qiladi. Shu so‘zlar yordamida askiya yengil, xushchaqchaq kulgi qo‘zg‘aydi. Bunday askiyalarda askiyachilarning portreti, fe‘l – atvoriga aloqador ayrim chizgilarni ham bilib olish mumkin bo‘ladi. Jumladan, yuqoridagi askiyaning birinchi qismida askiyachining ko‘zi o‘zligiga ishora qilingan bo‘lsa, ikkinchi qismida raqib askiyachining kal ekanligiga shama‘ qilingan.

Ba‘zi askiyalarda bir narsaning turli belgilariga ishora qilinganligini kuzatish mumkin.

Masalan:

Tursun buva: –Paxta terimi normangizni nega bajarmaysiz desam, eski “vavag‘” ekansizda.

Qodirjon aka: – O`zlari qora taxtani qo`noqqa aylantirib olibdilar-u, yana bizga tullaklik qiladilar.

Askiya payrovida ishlatilayotgan “vavag”, “tullak” so`zlarining har ikkalasi ham bedanani anglatadi. Payrovda ular o`z ma`nosida emas, ko`chma ma`noda qo`llanib, tortishuvda majoziy ma`no kasb etib, ish o`rniga gap sotadigan dangasalarning safsatasi bedana sayrashiga o`xshashligini hamda o`ta mug`ombir, ayyor kimsalar tullak bedana kabi ekanligini ta`kidlash uchun xizmat qilmoqda.

Xullas, askiya ijtimoiy hayot hodisalari, ayrim siyosiy muammolar, odamlarning turmush tarzi, o`zaro muomala-munosabati, yaxshi-yomon odatlari, orzu-istaklari asosida yaratiladigan ixcham va kulgili asarlardir. U aytuvchi va tinglovchilarga cheksiz zavq-shavq, ta`limiytarbiyaviy ozuqa baxsh etadi, kishilarni hozirjavoblikka, badihago`ylikka etaklaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, bungungi kunda ham bu janrining rivojlanishi uchun askiyaning mohir ustalari o`z faoliyati bilan xalqqa manzur namunalar yaratmoqdalar. Yurtimizda o`tkazilayotgan Navro`z, Hosil va shunga o`xshash bir qancha milliy bayramlarimizga askiya fayz kiritib kelmoqda. Xalqimiz askiya orqali ayrim siyosiy muammolar, odamlarning turmush tarzi, o`zaro muomala munosabati, orzu-istaklarini ko`rsatib berganlar. U tinglovchilarga ta`limiy-tarbiyaviy ozuqa baxsh etadi. Bu janrlar kelgusi avlod tomonidan rivojlantirilsa, bundan ming asr keyin ham yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. Muhammadiyev. Askiya.- T.1962.
2. M.Jo`rayev va T.Sobitova. Askiyada ijrochilik mahoratini oshirish yo`llari(metodik tavsiyanoma) T.1985.
3. Farg`onalik qiziqchilar.- T: “Mehnat”, 1994.
4. www.Ziyo.com
5. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. “*JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN*”. *JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE*.
6. Jalilova, R. (2022). TASVIRIY SAN`ATDA QALAMTASVIR TEXNOLOGIYASINI O`QITISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI. *Scienceandinnovation, 1(C2)*,
7. Jalilova, R. (2022). THE DEVELOPMENT OF VISUAL ART IN PENCIL DRAWING, PAINTING, COMPOSITION AND INDEPENDENT PAINTING. *Science and Innovation, 1(3)*,
8. Jalilova, R. (2022). HEREDITARYDISEASES. *Евразийский журнал академических исследований, 2(11)*,

9. Jalilova, R. Q. (2022). About identification of one model of nonstationary filtration. *Математическое и компьютерное моделирование естественных и социальных проблем: материалы XVII Всероссийского съезда математиков-информатиков*, 131.
10. Jalilova, R. Z. (2023). Representation of Human Face, Hands, Clothes in Painting and Pencil Drawing. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18,
11. Jalilova, R. (2023). EDUCATIONAL METHODOLOGY OF AESTHETIC EDUCATION OF LANDSCAPE PAINTING. *Science and innovation*, 2(C7),
12. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation*, 2(C7),
13. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
14. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
15. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN’ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
16. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *GospodarkaiInnowacje.*, 34,
17. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O ‘ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34,
18. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN’ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O ‘RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5),
19. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4),
20. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4),
21. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8,
22. Xojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG ‘USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),

23. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
24. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO‘LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2),
25. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE’S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021 ISSN 2456–5083
26. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqomsaboqlari: "Navo" maqomixususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01),
27. Achildiyeva M 2021 Academic YunusRajabi and His Scientific Heristage *Annals of Romanian Society for Cyell Biology* 25(4)
28. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9),
29. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6),
30. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
31. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO‘LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
32. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM *Journal of Innovation, Reforms and Development* (2022) ISSN (E):2751-1731
33. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643
34. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
35. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023

36. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O‘ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O‘RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384
37. Xojimamatov A. Atkiyoeva R. “VODIY BULBULI” TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287
38. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)
39. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal” 2 (4)
40. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan BotirUmidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683
41. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5)
42. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-АЧИИГ «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИ" ENGLAND" *MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION* Vol. 10 No. 1 (2023)
43. Xojimamatov A The Process of Changes and Depreciation of the Aesthetic Effectiveness of Musical Values under Globalization *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 11 <http://journals.proindex.uz>
44. Achildiyeva, M Historical Development of Uzbek Musical Art Stages and Ways of Improvement *Journal of Creativity in Art and Design* Volume: 2 Issue: 1 Year: 2024 20 <http://journals.proindex.uz>